

HAYKAL- TARIX, JASORAT VA DA'VAT RAMZI

Toshboltayev Islom Bahodir o'g'li.

IIV Surxondaryo akademik litseyi tarix fani o`qituvchisi.

mamasoatr@gmail.com +998 93 766 99 08

Annatatsiya: Ushbu ilmiy maqola Urganch shahrida joylashgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining haykali, haykal tarixi, haykalning ezgulik va vatanparvarlikka bo'lgan da'vatiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Haykal, tarix, Jaloliddin Manguberdi jasorati, da'vat ramzi.

Dunyoni, insoniyatni larzaga solgan Ikkinci jahon urushining hal qiluvchi, eng hayajonli damlari. Millionlab odamlarning yostig'ini quritgan Falokatning yakuni yaqin. Yakun nurli bo'lishi uchun yana necha millionlab insonning qo'llari duoda. Bunday vaziyatda Vatan himoyachilari — askarlar irodasiga ta'sir etuvchi har qanday kuch katta ahamiyatga ega. Shunday o'ta muhim paytda yozuvchimiz Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy dramasi dunyoga keldi. O'tmishda Chingizzonday qudratli kuchga qarshi tura olgan, mardonavor kurashgan Vatan tirgagi — Jaloliddin Manguberdining qahramonliklarini jonlantira olgan drama Ikkinci jahon urushi yillarining jangovar vazifalariga katta xizmat ko'rsatdi. Mazkur asar teatrda sahnalashtirildi. Manbalarda ko'rsatilishicha, Manguberdining kishida hayajonli faxr tuyg'usini junbushga keltira oladigan qahramonliklari aks etgan mazkur drama urushga ketayotgan askarlarga maxsus namoyish etilib, frontga jo'natilgan ekan. Bu esa askarlarda jangovar ruh va shijoat uyg'otib, dushmanga nafratni kuchaytirgan. Ana shunday vatanparvarlik tuyg'usining kuchayuviga sabab bo'lguvchi buyuk ajdodlarimiz, xususan, Jaloliddin Manguberdining jasoratlari asrlar o'tsa hamki, o'z qadr-qimmatini, ahamiyatini yo'qotmaydi. U kishida Vatanparvarlikdek Oliy Tuyg'uga xizmat qilish impulsini jo'sh urdirib turadi. Jaloliddin Manguberdining

yaqin a'yonlaridan biri bo'lган, mashhur tarixchi Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy buyuk bobomizni shunday asvirlagan: "U bug'doyrang, o'rta bo'yli, turkiy qiyofali va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga, forsiyda ham so'zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, janglardagi qahramonliklarini eslab o'tishning o'zi kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U jahldor emasdi, aqoratomuz so'zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi." Mashhur tarixchi Bartold Manguberdiga baho berar ekan, buni shunday ifoda etadi: "Xorazmshoh Alouddin Muhammad keyinchalik Jalol iddin ko'rsatgan va mumkin bo'lган qarshilik harakatining uchqunini ham ko'rsata olmadi». Darvoqe, shu o'rinda Manguberdining otasi — Xorazmshoh Alouddin Muhammad haqida turk tarixchi olimi Oydin Tonariy yozgan ba'zi bir ma'lumotlarni keltirib o'tsak. Tarixda buyuk iz qoldirgan xorazmshohlar sulolasining mashhur

siymolaridan biri bo'lган Alouddin Muhammad (hukmronlik davri 1220 y.) dastavval G'ur sultonlari Shihobiddin va G'iyosiddin bilan jang qildi.

G'uriylar Marv, Tus va Xurosonni qo'lga kiritish niyatida edilar. Alouddin Muhammad Nishopur, Marv, Saraxsni zabt etdi. Undan so'ng Xorazmshoh ko'p janglar o'tkazdi, g'uriylarni kuchsizlantirib, ularning ko'p erlarini tortib oldi. Bora-bora, bir vaqtlar qudratli hisoblangan g'uriylar davlati Alouddin Muhammadning tazyiqi sabab, parchalanib ketdi. Alouddin Xorazmshoh bunday natijalarga ko'p jihatdan qoraxitoylar orqali erishdi. Biroq u keyinchalik , qudrat kasb etib borayotganini his qildi, o'zi vassal bo'lган qoraxitoylarga qarshi yurishlar qilib, ularni engdi. Undan keyin Xorazmshoh Tabaristonda bovandiyalar hukmronligini yo'q qildi, Samarqand sultonı Usmonni o'ldirib, qoraxoniylarni tarix sahnasidan butunlay chiqarib yubordi. Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchi qipchoqlarning ustidan ham g'alaba qozongan Alouddin Muhammad 1215 yilda Sig'noqni o'z davlatiga qo'shib oldi. Jaloliddin Manguberdi "milliy qahramon" 1 ardan biri. 1999 yili mamlakatimizda Jaloliddin tavalludining 800 yilligi keng

nishonlangan. O'zbekistonda unga atab bir nechta haykallar o'rnatilgan, Xorazm viloyatida Jaloliddin Manguberdiga bag'ishlangan memorial majmua qurilgan. 1999-yil Jaloliddinning 800 yillik yubileyiga bag'ishlangan 25 so'mlik yubiley tangalar muomalaga kiritilgan. 2000-yilning 30-avgust kuni "Jaloliddim Manguberdi" ordeni ta'sis etilgan. Bu orden bilan mamlakat mustaqilligini, Vatan sarhadlarini, ona yurt tuprog'ini himoya qilishda hamda uni ko'z qorachig'iday asrashda yuksak harbiy mahorat, qahramonlik va jasorat namunalarini ko'rsatgan, davlatning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo'shgan qo'mondonlik tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar mukofotlanadilar. 2003-yilning 22-avgust kuni ushbu orden bilan Xorazm viloyati mukofotlangan.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yurt ozodligi yo'lida jonini fido etgan buyuk ajodolarimiz xotirasi hamisha barhayot. Ularning Vatan taqdiri yo'lida ko'rsatgan ulkan jasorati va mardligi chinakam ibratdir. Buyuk bobomizning ulkan jasoratini bir so'z bilan ifodalash qiyin. U o'z yurtini himoya qilish barobarida, dushmanga qarshi mardonavor kurashdi, ona Vatanimizning tinch-osuda hayoti uchun jonini ayamadi. xalqiga bo'lgan cheksiz mehru muhabbatini amalda namoyon etib, o'z nomini tarix zarvaraqlariga mangu muhrladi. Biz, yoshlar millatimiz qahramonlarining ibratli hayotini chuqur o'rganib, hamisha faxr-iftixor tuyg'ularini tuyishimiz shart, Jaloliddin Maguberdining shaxsiy kotibi Shaxobiddin An Nasaviy shunday yozadi "U sherlarning sheri va otliq yigitlar ichida eng dovyuragi edi. U yumshoq edi, jahli chiqmas edi, so'kinmasdi ham, u jiddiy edi, hech qachon kulmasdi, faqat jilmayardi va kamgap edi. U adolatni sevardi, biroq u duch kelgan suronli yillar uning ustidan g'alaba qildi va uning fe'lini o'zgartirdi. U fuqarolarning hayotini osonlashtirishni yoqtirardi, lekin tanazzul paytida boshqargani uchun jabr qilishgacha bordi"

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Turg'unboyeva.M., & Haydrov, S.A. (2021). Tarix fanini o'qitishda

- “O'ttiz yillik urush”ning ahamiyati. Scientific progress,1(5).
2. Omonov, A. O. O., & Haydarov, S. A. (2021). Tarix fanini o'rganishda Frigiya podsholigining o'rni va ahamiyati. Scientific progress, 1 (5).
3. Shihobiddin an-Nasaviy. <http://khorezmiy.uz/oz/pages/view/324>
4. Хоразм тарихи. I jild. M.Matniyozov muxarirligi ostida. – Urganch. 1996. B. 295